

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

E.G'OZIYEV

UMUMIY PSIXOLOGIYA

Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik

Toshkent - "Universitet" – 2002

Mazkur darslik umumiy psixologiya faniga bag'ishlangan bo'lib, psixologiyaga kirish, shaxs va uning individual-tipologik xususiyatlari to'g'risidagi materiallarni o'zida mujassamlashtirgan. Darslikning o'tmishdoshlaridan farqi shundaki, unda barcha psixologik kategoriyalar, muammolar yangicha metodologik yondashuv negiziga suyangan holda talqin qilinadi. Uning birinchi qismida psixologiyaning predmeti, tadqiqot metodlari, printsiplari, psixikaning evolyutsion taraqqiyoti, faoliyat va ongning psixologik tahlili umumlashtirilgan.

Darslikning ikkinchi qismida shaxs to'g'risida tushuncha, uning tuzilmasi, nazariyalari, asosiy metodlari, shaxs eshtiyojlari, motivatsiyasi, qiziqishi, emotsiyasi (hissiyoti), xarakteri, irodasi, qobiliyati, temperamenti, bilish jarayonlari hamda ularning jahon psixologiyasi fanida o'rganilishi masalalari o'z ifodasini topgan.

Darslik psixolog mutaxassislarni nazariy va amaliy ma'lumotlar bilan qurollantirish imkoniyatiga ega. Darslik psixolog mutaxassislarga, aspirantlarga va oliy maktab o'qituvchilariga mo'ljallangan.

TAQRIZCHILAR: T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti bo'lim boshlig'i, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent M.Sh.Rasulova

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU ijtimoiy psixologiya kafedrasi dotsenti R.Yu.Toshimov

MAS'UL MUHARRIR: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU ijtimoiy psixologiya kafedrasi dotsenti M.M.Mamatov

O'zMU o'quv metodik Kengashining 2002 yil Majlis qarori bilan nashrga tavsiya etilgan. "Universitet" nashriyoti, 2002.

MUQADDIMA

Yigirma birinchi asr fan va texnikaning yangi bir yuksalish pallasiga kirganligi bilan, shuningdek, qarama-qarshi tizimlar barham topganligi bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. XXI asr jahon sivilizatsiyaga oltin harflar bilan bitilgan son-sanoqsiz zar varaqlarga ega bo'lishi bilan birga ekologiya muammolarining yuzaga chiqarganligi tufayli boshqa asrlardan keskin ajralib turadi. Er kurrasida farovonlik, mo'l-ko'lchilik, tinch, osoyishta hayot bo'lishi uchun qit'alararo, millatlararo hamkorlik yo'lga qo'yilishi, ekologiyani musaffolashtirish uchun strategik qurollar va texnologiyani zararsizlantirish, ona zaminni va moviy osmonni avaylash lozim. Yer farzandi degan nuqtai nazar bilan jahondagi millat va elatlarni hamkorlikka undash orqali abadiylik qonuniyatini saqlab qolish mumkin, xolos.

Ma'lumki, jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni tadqiqot etishga mo'jallangan fanlardan bittasi psixologiya hisoblanadi. Psixologik bilimlarni ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida tatbiq etish ko'lami kengayib borishi uning mas'uliyati va nufuzi ortayotganligidan dalolat beradi. Xuddi shu bois psixolog mutaxassislariga nisbatan ijtimoiy buyurtmaning ko'payishi ularni hozirgi zamon talabiga javob beradigan darajada tayyorlashni taqozo qilmoqda. Istiqlol harofati tufayli ilmiy yondashuvlarga, oldingi metodologik muammolarga xolisona munosabatda bo'lish imkoniyati vujudga keldi.

Mamlakatimiz prezidenti I.A.Karimov asarlarida, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi qonun" da, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da, "Milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasi" hujjatida mutaxassislar oldiga ulkan talablar va mas'ul vazifalar yuklamoqda. Ana shu vazifalarni amaliyotda o'z ifodasini toptirishda umumiy psixologiya fani muhim rol o'ynaydi. Mutaxassislar tayyorlash jarayonida umumiy psixologiya fani kasbiy bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni shakllantirish borasida ustuvor o'rin egallaydi. Shuning uchun psixolog ixtisosligiga ushbu fan uch yil mobaynida o'qitiladi.

Mazkur qo'llanma umumiy psixologiya dasturiga asoslangan holda yaratilgan bo'lib, talabalar uchun zarur materiallar izchil ravishda, muayyan tartibda joylashtirilgandir. Umumiy psixologiya o'quv qo'llanmasi 2 jildidan iborat bo'lib, birinchi kitobda umumiy psixologiyaga kirish, shaxs va uning individual-tipologik xususiyatlariga bag'ishlangan materiallar jamlangan. Ikkinchi kitobda bilish jarayonlari yuzasidan ma'lumotlar umumlashtiriladi. Nazariy va amaliy materiallar nisbati maqsadga muvofiq taqsimlangan bo'lib, nazariya bilan amaliyot birligi printsipiga to'la rioya qilingan.

Qo'llanma psixologiya mutaxassisligining bakalavriatura bosqichi uchun mo'jallangan.

BIRINCHI BO'LIM PSIXOLOGIYAGA KIRISH

I BOB PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI

1. Psixologiya haqida tushuncha

Jahon fanlarining muayyan qonuniyatlarga asoslanib turkumlarga kiritilishiga ko'ra, psixologiya fani bu tizimda nufuzli o'rin egallashiga barcha obektiv harakat va haroratlar yetarlidir. Qat'iy ishonch bilan aytilgan fikrning zamirida bir qator muhim ham tabiiy, ham ijtimoiy omillar yotishi shak-shubhasizdir. Chunki, psixologiya fani insoniyat tomonidan kashf qilingan fanlarning ichida eng murakkabi bo'lib, biosferik ta'limotdan kelib chiqqan holda psixika yuksak darajada tashkil topgan materiyani xususiyatini aks ettiruvchi kategoriya sifatida o'rganilib kelingan. Lekin bugungi kunda neosferik ta'limotga binoan fazoviy munosabatlar, sayyoralararo aloqalar, o'zaro ta'sirlar, moddalar, zarrachalar, nurlar harakati, almashinishi, qo'shilishi to'g'risida mulohazalar, faraziy asosda bo'lsa ham, yuritilmoqda.

Ayniqsa, biosferaga kirib kelayotgan moddalarning o'zaro birikuvi, muayyan fazoviy maydonning hosil qilishi, to'planishi inson tana a'zolariga ijodiy ta'sir ko'rsatishi, natijada favquloddagi holatlar sodir bo'lishi, kashfiyotlar yuz berishi, intuitiv (lotincha "intueri" sinchkovlik, diqqat bilan qaramoq yoki ichki sezgirlik demakdir) shakldagi ruhiy holatlarning kuchayishi namoyon bo'lishi mumkin. Bular qatoriga telepatik (yunoncha "tele" uzoqni "pathos" sezaman degan ma'no anglatadi) samaralar, o'ta sezgirlik, ekstrasezitivlik (lotincha "extra" o'ta, "sensus" sezgirlik degani), ekstrasezitivlik (lotincha "extra" o'ta, "sensus" his qilaman ma'nosini bildiradi) kabi psixologik holatlarning kechishi sabablarini kiritish bo'ladi.

Shuningdek, omadsizlik, ichikishlik, kasalning intizor kutishi, nasib etmaslik, ishqiy kechinmalar, tushda ayon bo'lish kabi ruhiy holatlar, hodisalar hanuzgacha ishonchli dalillar bilan tushuntirib berilgani yo'q. Ammo bu borada bilish ob'ekti (lotin. "objectum" jism demakdir) bilan sub'ektining (lotin. "subjectum" tashqi olamni biluvchi inson) birikuvida psixologiyani qulay imkoniyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tish o'rinlidir. Ushbu fikrni yaqqollashtirish maqsadida ayrim misollar va talqinlarni qaytadan tahlil qilib o'tamiz.

Jumladan, chaqaloq dunyo yuzini ko'rishdan e'tiboran idrokida tevarakatrofni va unga mehrigiyosi bilan termilayotgan kishilar muhitini aks ettira boshlaydi, dastavval ob'ektiv (tashqi) va sub'ektiv (ichki, odamlar o'rtasidagi) muhitga moslashish sodda instinktlar (lot."instinctus" tabiiy qo'zg'atuvchi, tug'ma xususiyat demakdir), hartsiz reflekslar (lot."reflexus" aks ettirish) yordamida oddiy ta'sirlanish va taassurot tarzida namoyon bo'ladi. Taraqqiyotning mazkur davrida u o'zligini tushuna va anglay olmaydi, hatto buning yuzaga kelishi haqida mulohaza yuritishi ham aslo mumkin emas. Bola bir yoshgacha davrda tez sur'atlar bilan rivojlanadi, yil davomida uning jismoniy a'zolari 50 foizgacha takomillashishi

mumkin. Jismoniy o'sish-psixik (ruhiy) taraqqiyotni tezlashtirishga puxta zamin hozirlaydi, natijada ko'rish, ushlar, yurish, talpinish, g'azablanish va quvonish, samimiyluk ham beg'uborlik singari insoniy tuyg'ulari vujudga keladi, nutq faoliyati paydo bo'lishi uning tushunish darajasini yangi bir sifat bosqichiga ko'taradi. Psixikaning muayyan xususiyatlari, holatlari, hodisalari, xossalari, sifatlari, fazilatlar, qonuniyatlari orqali moddiy dunyoni tushuna boradi va unda o'z faoliyatining mazmunida barcha ob'ektlarni amalga oshira boshlaydi. Bolalik dunyosining ichki murakkab qatlamlaridan asta-sekin " o'zlik" ni, shaxsiy "men" likni tushunish tuyg'usi, sezish, his qilish jarayonlari shakllana boshlaydi hamda u yoki bu har xil xususiyatli to'siqlarni yengish imkoniyati ro'yobga chiqadi.

Mazkur taraqqiyot bosqichi psixologiya fanida "men" davri yoki " o'zlik"ni anglash davri deb yuritiladi, u bolada nutq paydo bo'lganidan boshlanib, bir necha rivojlanish bosqichlarini o'z ichiga qamrab oladi. "Men" davrining anglashilgan shakllari va ko'rinishlarining namoyon bo'lishi o'smirlik davriga to'g'ri keladi. O'smirlik davrida o'g'il va qizlarning ruhiyatida o'zlikni anglashga bog'liq bir talay muammoli savollar va ularning turmushda qaror toptirish tuyg'ulari, istaklari, orzulari paydo bo'lib, ko'pincha bu narsalar yakka shaxsning "kimligi", "qandayligi", "kimga va nima uchun kerakligi" ga yo'naltiriladi. Bolaning psixik xususiyatlari, funktsiyalari (lot. "function" ijro etish, bajarish degan ma'no anglatadi) uni qurshab turgan jonli va jonsiz tabiat ajoyibotlarini jismoniy va ijtimoiy vositalar orqali egallash uchun xizmat qiladi.

Xuddi shunga o'xshash o'zligini anglash jarayoni insoniyatning barcha tarixiy va evolyutsion (lot. "evolution" tabiiy ravishda o'zgarish) taraqqiyoti davrlariga xos xususiyat sanaladi. Ibtidoiy jamiyatda kishilarning kuch-quvvati yashash uchun kurashga va tashqi dunyoni egallashga sarflangan, ana shu tariqa tabiat haqidagi dastlabki bilimlar, tajriba saboqlari orqali o'zlashtirilgan. Yarim yirtqich holatdagi ajdodlarimiz olovni kashf qilganlar, yovvoyi hayvonlarni ovlaganlar, tabiat ne'matlaridan bahramand bo'lganlar va xuddi shu qabilda tabiat bilan tanisha boshlaganlar, moddiy dunyoning saxiyli, tabiatning ehsonlari va ofatlari, hayvonot olamini madaniylashtirish (xonakilashtirish), yer ilmini o'rganish bo'yicha bilimlarning to'planishi natijasida inson tabiatning qulligidan qutila borgan soniyadan e'tiboran o'zligini (kimligini) anglash imkoniyati tug'ila boshlagan.

Lekin u davrning odamlari bolaga o'xshab o'zligini oqilona, odilona, omilkorlik bilan tasavvur eta olmaganlar. Insoniyat taraqqiyotining tarixiy davrlarida kishilarda ichki ruhiy imkoniyatlar yuzaga chiqa boshlagan, tug'ma mayl va layoqatlar alomatlari asta-sekin iste'dodga, qobiliyatga aylana borgan. Ammo bu jarayon birining o'rniga ikkinchisini mexanik (yunoncha "mekhanike" qurol yoki sodda tarzda demakdir) ravishda yuzaga kelganligini bildirmaydi, balki, aksincha, murakkab sifat o'zgarishlari, organlarning takomillashuvi, tajribalarda to'plangan tatbiqiy bilimlar tartibga solinayotganligini ifodalaydi.

Insonning jismoniy (biologik), ruhiy (psixik), ijtimoiy (sotsial) rivojlanishi natijasida yer kurrasida moddiy dunyo, ma'naviyat, yozuv, san'at, adabiyot, fan, texnika yaratilgan. Bularning zahirida inson tafakkuri, ongi, aql-zakovati, kuchli irodasi, mustahkam xarakteri (yunoncha "character" qiyofa, xislat degani),